

BOLANING RUHIY VA IJTIMOYIY RIVOJLANISHIDA TASHQI TA’SIRLARNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHLTLARI

Bobonazarova Komolaxon Baxtiyorovna

Toshkent shahar 247 maktab psixologi

Annonatsiya: Maqolada mamlakatimizda yosh avlodni jahon talablari asosida tarbiyalash, ruhiy va iltimoiy rivojlanishida jamiyat, oila va tarbiyachilarning o‘rni haqidagi fikrlarni yetkazish orqali bolaning rivojlanishida tashqi ta’sirlarning ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat, suverenitet, islohot, inson huquqi, diniy bag‘rikenglik, qonun ustuvorligi, millatlararo totuvlik, shaxs, irsiyat, ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya, psixologik sifat, temperament, faollik.

IN CHILD’S MENTAL AND SOCIAL DEVELOPMENT PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF EXTERNAL INFLUENCES

Abstract: The article highlights the importance of external influences in the development of a child by conveying ideas about the role of society, family and educators in the upbringing of the young generation in our country on the basis of global requirements, in their mental and emotional development.

Key words: State, sovereignty, reform, human rights, religious tolerance, rule of law, international harmony, personality, heredity, social environment, education, psychological quality, temperament, activity.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar zamirida milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo

totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘la oladigan yosh avlodni tarbiyalash masalasiga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Kelajak avlodni jahon talablari darajasida ta’lim olishi, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda ta’lim-tarbiya berish sifatini yangi bosqichga ko‘tarish masalasiga alohida e’tibor berilmoqda.

Buyuk ajdodimiz Abu Rayxon Beruniy shaxsning rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya muhim ahamiyatga egaligini e’tirof etgan[1]. Shaxsning kamol topishi qaysi jamiyatda yashasa, o‘sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib amalga oshadi. Ma’lumki, har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo‘ladi. U o‘zining qobiliyati, qiziqishi, xarakteri, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u barcha tug‘ma va egallangan miqdor hamda sifat o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi. Jismoniy rivojlanish bo‘yicha o‘sishi, vaznning ortishi, sezgi a‘zolarining mukammallashuvi, harakatlarni to‘g‘ri boshqara bilish bilan bog‘liqdir. Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar temperament belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi[2].

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish, ta’lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo‘lgan mazmunni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya va ta’limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi, jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi. Keyingi yosh guruhlarida maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq ta’lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o‘zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga kelib erishgan

rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o’zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir[2].

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni birdaniga o’zlashtirib olmaydilar, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab oladilar. Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrof ma’lum bir munosabatning shakllanishiga asos bo’lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo’ladigan his-tuyg’u, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi. Bu esa boladagi faollikni rivojlantiradi.

Mashg’ulotlardagi o’quv faoliyati orqali bolalar tevarak-atrofdagi tabiat, ijtimoiy hayot, kishilar to’g’risidagi bilimlarni o’zlashtirib oladilar. Shuningdek, ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi[3].

Agar ta’lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to’g’risidagi konkret faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta’lim berishda asosiy e’tibor munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tafakkur rivojlantiriladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o’qish asosiy faoliyat bo’lib qoladi va bu faoliyatni bolalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat deb anglay boshlaydilar, Bola o’zini maktab o’quvchisi deb tushuna boshlaydi. Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol o’ynaydi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug’ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga albatta, malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlantirish bilan erishiladi. Odam shaxsini shakllantirish bu tevarak-atrofdagi dunyoga, tabiatga, mehnatga, boshqa odamlarga va o’ziga munosabat sistemasini izchil o’zgartirish va murakkablashtirishdir. Bu uning butun hayoti davomida ro’y beradi. Bunda bolalik va o’smirlik yoshi, ayniqsa, muhimdir. Odamning shaxs sifatida rivojlanishi uning jismoniy va ma’naviy kuchlari birligida har tomonlama va yaxlit amalga oshiriladi. Dunyoqarash, e’tiqod, ma’naviy

sifatlar, his-tuyg‘ular (burch, vijdon, mas’uliyat, muhabbat) madaniyati aniq tarixiy ijtimoiy sharoitda yaratiladi va shaxsning shakllanishiga ta’sir etadi[3].

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv bolalarni shaxs sifatida shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta, o’rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to’liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko’tarishni oliy maqsad sifatida belgilaydi. Tarbiyaning natijaviy amalga oshirish orqali ma’naviy tarbiyani yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’limda tarbiyaviy ishlarni bugungi kun talablariga javob beradigan holatga keltirish uchun tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqib, bolalarda ruhiy va ijtimoiy rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bolalardagi ruhiy va ijtimoiy rivojlanish sifatlarini tarkib toptirish bog‘cha psixologlaridan katta mas’uliyat talab qiladi va quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi:

- bolalarda ruhiy va ijtimoiy rivojlanishning pedagogik jihatlarini tahlil qilish va takomillashtirish;

- bolalarda ruhiy va ijtimoiy rivojlanishning ijtimoiy-perseptiv jihatlarini, tamoyillarini takomillashtirish;

- bolalarda ruhiy va ijtimoiy rivojlanishning shakllanganlik darajasini baholovchi mezonlarini aniqlashtirish;

- bolalarda ruhiy va ijtimoiy rivojlanishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa shuki, bugungi kunda yoshlarning turli salbiy guruhlariga qo‘shilib qolish holatlari ham uchrab turayotganligiga alohida e’tibor berish lozim. Bunday holatlarning oldini olish uchun oilada sog‘lom psixologik iqlim yaratish, tarbiyachi va tashkilot rahbarining bola bilan bo‘lgan munosabatida o‘zaro ishonch, hurmat hamda mas’uliyatini oshirish bola ruhiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. -T.: O‘qituvchi. 1974
2. Hasanboyeva O va boshqalar. Maktabgacha ta’lim. –T.: Ilm Ziyo. 2011
3. Qodirova F va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. –T.: Tafakkur. 2019

